

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 11513,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,6 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-iyuni yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 6057,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,9 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun	
I. YaHM	8 836,1	11 513,6	104,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 229,8	10 522,9	104,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	606,3	990,7	108,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 229,8	10 522,9	104,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 723,5	4098,4	100,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 003,6	3 237,1	110,5
sanoat	1 169,7	2 200,3	105,4
qurilish	833,9	1 036,8	117,6
Xizmatlar	2 502,7	3 187,4	105,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	665,4	784,7	104,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	595,4	670,8	107,7
boshqa xizmat tarmoqlari	1 241,9	1 731,9	105,4

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i – 100,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 38,9 %) xizmatlar tarmog'ining o'sish sur'ati – 105,6 % – 30,3 %), , sanoat – 105,4 % (20,9 %) va qurilish – 117,6 % (9,9 %) ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar - iyunda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 91,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8,6 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 6,3 % punktga kamaydi va hisobot yilida 38,9 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 6,5 % punktga oshdi va 30,8 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 30,3 % ni tashkil etdi va 2018 yil mos davri (30,5 %) bilan taqqoslanganda 0,2 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,5 % ni (2018 yil yanvar-iyun – 8,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,4 % ni (7,2 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 16,4 % ni (15,2 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: R.Usmanova
(0371) 230-82-98